



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRINING BUYRUG'I

2025 yil "14-mart"

№ 67a

Toshkent sh.

Davolash-profilaktika muassasalarida tibbiy yordam sifatini nazorat qilish va faoliyatini baholovchi indikatorlar asosida doimiy monitoring o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentyabrdagi "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-311-son qaroriga muvofiq davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish doirasida davolash-profilaktika muassasalarida ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning tasdiqlangan Milliy klinik protokollar va klinik standartlarga muvofiqligini hamda uning sifatini nazorat qilish, davolash-profilaktika muassasalari faoliyatini baholovchi indikatorlar asosida doimiy monitoring o'rnatish maqsadida, **buyuraman**:

1. Davolash-profilaktika muassasalarida ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning tasdiqlangan standart hamda protokollarga muvofiqligi va sifatini nazorat qilish tartibi hamda davolash-profilaktika muassasalari faoliyatini baholovchi indikatorlar to'g'risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Nazorat inspeksiyasi (A.Alijanov) va Tibbiy sug'urta boshqarmasi (Sh.Almardanov) davolash-profilaktika muassasalarida statsionar va ambulator sharoitda ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini doimiy ravishda monitoring qilish va baholashni tashkil etsin.

3. Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi (Z.Ermatov):

- 2025-yil 1-maydan davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish doirasida davolash-profilaktika muassasalarida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning tasdiqlangan Milliy klinik protokollar va klinik standartlarga muvofiqligi, klinik jihatdan asoslanganligini tekshirish, qilingan sarf-xarajatlar iqtisodiy samaradorligini baholash hamda tibbiy yordam sifatini nazorat qilish tartibini joriy etsin;

- o'tkazilgan o'rganish natijalari bo'yicha vazirlikning hay'at yig'ilishlarida muhokama qilib borish uchun ma'lumotlarni kiritib borsin.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi

K/R: 1143

2025-yil 21-may

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri sog'liqni saqlash boshqarmalari:

- o'z hududida davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish doirasida davolash-profilaktika muassasalarida tegishli chora-tadbirlarni (tasdiqlangan Milliy klinik protokollar va klinik standartlar bilan ishlash, tibbiy asbob-uskuna, kompyuter texnikasi va boshqa vositalar ta'minoti, xodimlarni o'qitish va qayta tayyorlash) amalga oshirilishini ta'minlasin;

- mazkur buyruq bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq o'z hududingizdagi barcha davolash-profilaktika muassasalarida statsionar va ambulator sharoitida ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini doimiy ravishda monitoring qilish va baholashni tashkil etish maqsadida zarur shart-sharoitlar yaratilsin;

- davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etish doirasida davolash-profilaktika muassasalari rahbarlariga muassasaning quvvati doirasida bo'linmalar ixtisoslashuvini, ulardagi davo o'rinlari sonini o'zgartirish hamda ajratilgan mablag'lar doirasida xodimlar sonini ish hajmiga muvofiq belgilash vakolati berilsin;

- tibbiy xizmatlar xaridi asosida Jamg'arma orqali moliyalashtiriladigan davlat tibbiyot muassasalariga budjet mablag'lari oluvchisi maqomi berilsin, bunda ularga nisbatan Davlat budjetiga undiriladigan soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha budjet tashkilotlari uchun belgilangan tartib qo'llanilsin.

5. Raqamli texnologiyalarni joriy etish va muvofiqlashtirish bo'limi (N.Eshnazarov) davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari joriy etilayotgan hududlarda tuman (shahar) va hududiy darajadagi tibbiyot muassasalarida elektron sog'liqni saqlash axborot tizimining to'laqonli ishlashini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazir o'rinbosari F. Sharipov zimmasiga yuklansin.

Vazir



A. Xudayarov

Sog'liqni saqlash vazirining
2025-yil 14-martdagi
67 a-son buyrug'iga
ilova

**Davolash-profilaktika muassasalarida ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning
tasdiqlangan standart hamda protokollarga muvofiqligi va sifatini nazorat qilish
tartibi hamda davolash-profilaktika muassasalari faoliyatini baholovchi
indikatorlar to'g'risidagi**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning tasdiqlangan tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollarga muvofiqligi shuningdek, tibbiy yordam sifatini nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom davolash-profilaktika muassasalariga nisbatan qo'llaniladi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Davolash-profilaktika muassasasi (keyingi o'rinlarda - DPM) – aholiga tibbiy-profilaktika yordamini ko'rsatish uchun mo'ljallangan tibbiyot muassasalarining umumiy nomi;

DPM larning ikkita asosiy turi mavjud:

Ambulatoriya – poliklinikalar, maslahat poliklinikalar, dispanserlar, markazlar, tibbiy-sanitariya bo'linmalari va tez yordam stansiyalari;

Statsionar – barcha turdagi shifoxonalar (markazlar), klinikalar, onalik va bolalikni muhofaza qilish muassasalari, xospislar, gospitalar, sanatoriylar.

tibbiy yordam – aholi salomatligini saqlash va tiklashga, shu jumladan dori vositalari bilan ta'minlashga qaratilgan tibbiy xizmatlar majmuidir;

tibbiy yordam sifati – tibbiy yordam ko'rsatishda uning o'z vaqtida ko'rsatilganligi hamda profilaktika qilish, tashxis qo'yish, davolash va reabilitatsiya usullarining tasdiqlangan tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollarga muvofiq o'tkazilganligi;

tibbiy yordam sifatini baholash – DPM tomonidan bemorlarga ko'rsatilgan tibbiy yordam sifatini hamda ularning tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollarga muvofiqligini taqdim etilgan hujjatlar asosida tibbiy yordam sifatiga baho berish;

tibbiy yordam sifatini nazorat qilish – tibbiy xizmatlarning samaradorligi, to'liqligi, tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollarga muvofiqligini aks ettiruvchi, tibbiy xizmatlarning sifati to'g'risida xulosa chiqarish uchun amalga oshiriladigan tashkiliy, tahliliy va amaliy tadbirlar majmui.

2-bob. Tibbiy yordam sifatini baholash va nazorat qilishning asosiy tamoyillari

4. Davolash jarayonlarini tizimli baholash orqali, ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifati muntazam oshirilishi va takomillashtirilishiga e'tibor qaratish.

5. Ko'rsatilgan tibbiy yordamning tasdiqlangan standart va protokollarga muvofiqligi hamda sifatini nazorat qilish, tibbiy xizmatlar xaridida ishtirok etuvchi DPM larda **Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi (keyingi o'rinlarda – Jamg'arma)** ning mas'ul mutaxassislari hamda o'rnatilgan tartibda jalb qilingan ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi.

6. Ko'rsatilgan tibbiy yordam tasdiqlangan tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollarga muvofiqligini nazorat qilishda dalillarga asoslanish.

7. Nazorat va baholash tadbirlarini o'tkazishda sifat mezonlaridan foydalanish. Jumladan, asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, tibbiy, moliyaviy va iqtisodiy o'rganish hamda ma'lumotlar tahlilini yaxshilash uchun tibbiy hujjatlar elektron almashinuvi tizimini joriy etish va ulardan foydalanish.

3-bob. Tibbiy yordam sifatini nazorat qilish va klinik jihatdan asoslanganligini tekshirish maqsadlari

8. DPM tomonidan ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning tasdiqlangan tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollarga rioya etilishini nazorat qilish.

9. Davolash sifatining pasayishiga olib keluvchi omillarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

10. Resurslardan foydalanishni maqbullashtirish va DPM faoliyatida shaffoflik va javobgarlikni kuchaytirish.

11. DPM lar tomonidan kafolatlangan hajmga kiritilgan tibbiy xizmatlar va dori vositalari hamda tibbiy buyumlar bilan aholini bepul ta'minlashini nazoratga olish.

12. Tibbiy yordam sifatini nazorat qilish quyidagi vazifalari o'z ichiga oladi:

- ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning tasdiqlangan tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollarga muvofiqligini baholash;
- ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- tasdiqlangan tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollarni tatbiq qilinishi hamda bajarilishini nazorat qilish;
- DPM lar faoliyatining shaffofligi va hisobotlar haqqoniyligiga javobgarligini ta'minlash;
- tibbiy yordam oluvchilarning yordamdan qoniqish darajasini aniqlash.

13. Kasalliklarni tashxislash, davolash va davolashning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, DPM larda tibbiy yordam sifatini hamda klinik jihatdan asoslanganligini tekshirish rejali va rejadan tashqari o'tkazish.

14. Olingan miqdoriy ko'rsatkichlarni boshqa muassasalar va oldingi davrlar

natijalari bilan taqqoslash, tendensiyalarni aniqlash va tibbiy yordam sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

15. O'tkazilgan o'rganish ma'lumotlari asosida, zarur bo'lganda, moliyaviy audit yordamida amalga oshirish.

4-bob. Davolash-profilaktika muassasalarini ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini hamda tasdiqlangan standart va klinik protokollarga muvofiqligini baholashni rejalashtirish

16. Jamg'arma, joriy yil oxirida keyingi kalendar yili uchun tibbiy xizmatlar xaridida ishtirok etuvchi DPM larni ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini hamda tasdiqlangan standart va klinik protokollarga muvofiqligini baholash rejasini tuzadi.

17. DPM lar ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini baholash rejasi Jamg'arma rahbari tomonidan tasdiqlanadi va jamg'armaning buyrug'i asosida o'tkaziladi.

18. Tibbiy yordam sifatini baholash rejasini tuzishda avvalgi o'rganishlar natijalari, DPM tomonidan tasdiqlangan tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollarga rioya qilish darajasi, shuningdek tibbiy yordam sifatini nazorat qilish bo'yicha aniqlangan xavf va ehtiyojlar hisobga olinadi.

19. Rejali o'rganish muassasada yilda bir marta va uning muddati o'n ish kundan ortiq bo'lmasligi lozim.

20. Zarur xollarda, DPM da yangi xavf yoki ehtiyojlar aniqlanganida rejadan tashqari o'rganish o'tkazilishi mumkin. Bunda, asoslovchi hujjatlar bilan Jamg'arma rahbari nomiga bildirgi kiritiladi va uning alohida buyrug'i asosida ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini baholash o'tkaziladi.

21. Yil yakunida Jamg'arma mas'ullari, o'tkazilgan tibbiy o'rganishlarning samaradorligini va rejaning bajarilishini baholaydi.

5-bob. Manfaatlar to'qnashuvi va tarafkashlik holatlarini hal qilish

22. Manfaatlar to'qnashuvi va/yoki tarafkashlik tibbiy ekspert yoki mustaqil ekspert, ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini baholash davomida uning xolisligi va xolisligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan shaxsiy, kasbiy yoki moliyaviy manfaatlarga ega bo'lganda yuzaga keladi.

23. Manfaatlar to'qnashuvi va/yoki tarafkashlik tibbiy yordam sifatini noxolis baholashga olib kelishi mumkin bo'lgan holat sifatida ko'rilishi lozim.

24. Tibbiy yordam sifatini baholash jarayonida manfaatlar to'qnashuvi va/yoki tarafkashlik aniqlanganda, tashkilot rahbariyati yuzaga kelgan vaziyat to'g'risida darhol ekspertni va Jamg'armani xabardor qilishi lozim hamda tibbiy yordam sifatini baholash jarayoni to'xtatilishi kerak.

25. Xabarnoma o'rganishni kechiktirishni minimallashtirish uchun avval telefon aloqa orqali xabar berilishi, so'ngra tasdiqlangan yozma ko'rinishda yuborilishi lozim.

26. Jamg'arma bir ish kuni ichida xabarnomani ko'rib chiqadi, manfaatlar to'qnashuvi tasdiqlansa, ekspertni darhol boshqa ekspert bilan almashtirish to'g'risida qaror qabul qiladi va tashkilot rahbarini xabardor qiladi.

27. Ekspert almashtirilgandan so'ng tibbiy yordam sifatini baholash qayta boshlanadi. Yangi ekspert, agar o'rganish natijalari mojaroga ta'sir qilmagan bo'lsa, avvalgi ish bosqichlarining natijalarini hisobga oladi.

6-bob. Davolash-profilaktika muassasalarining ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini baholash

28. Statsionar tibbiy yordam ko'rsatuvchi muassasalar Nizomning 1-ilovasi hamda birlamchi tibbiy sanitariya yordamini (ambulatoriya) ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalarini tibbiy yordam sifatini baholash 2-ilovasi bilan tasdiqlangan tartibga muvofiq o'tkaziladi.

7-bob. Tibbiy yordam sifatini baholash natijalarini muhokama qilish

29. Tibbiy yordam sifatini hamda tasdiqlangan standart va klinik protokollarga muvofiqligini baholash tugagandan so'ng ekspertlar guruhi dastlabki natijalarini muhokama qilish uchun, jarayonning shaffofligi va tibbiy yordam sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalarni tahlil qilish uchun xodimlar, bo'lim boshliqlari va tibbiyot tashkiloti rahbariyati ishtirokida yig'ilish o'tkazadi hamda choralar belgilaydi.

30. Yig'ilishning vazifalari:

- tibbiy yordam sifatini baholash davomida aniqlangan natijalar, shu jumladan ijobiy tomonlari va aniqlangan kamchiliklar to'g'risida xodimlar va rahbariyatni xabardor qilish;

- aniqlangan muammo va kamchiliklar haqida tashkilot xodimlariga qo'shimcha tushuntirishlar berish yoki olish. Bu muayyan qoida buzarliklar yoki kamchiliklarning sabablarini aniqlashga va vaziyatni to'liqroq tushunishga yordam beradi;

- aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va tibbiy yordam sifatini oshirishning mumkin bo'lgan choralarini muhokama qilish. Tuzatish choralari bo'yicha takliflarni birgalikda ishlab chiqish;

- yig'ilish natijalari bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi hamda muassasa rahbari va ekspertlar tomonidan imzolanadi.

8-bob. Hisobot va hujjatlarga qo'yiladigan talablar

31. Tibbiy yordam sifatini baholashning barcha natijalari yozma ravishda hujjatlashtirilishi va yakuniy hisobot shaklida taqdim etilishi.

32. Yakuniy hisobotda barcha baholash mezonlarining natijalarini, shuningdek, tibbiy yordam sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan bo'lishi.

33. Hisobot ushbu Nizom bilan tasdiqlangan, belgilangan shaklda tuzilishi hamda ekspertlar guruhi tomonidan imzolanishi.

34. Tibbiy yordam sifatini o'rganish xulosasi tibbiyot tashkiloti rahbariga (yoki uning o'rnini bosuvchi xodimga) tanishtirish uchun taqdim etiladi va rahbar tomondan

imzolanadi. Rahbar imzolashtan bosh tortgan hollarda tibbiy yordam sifatini baholashda qatnashgan kamida 3 a'zo tomonidan imzolangan dalolatnoma tuziladi.

35. O'rganish tugagandan so'ng, yakuniy hisobot, yig'ilish bayonnomasi hamda birlashtirilgan ball kartalari bilan birga, tahlil qilish va keyingi harakat uchun Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi rahbariyatiga taqdim qilinishi lozim.

36. O'tkazilgan tibbiy yordam sifatini o'rganish hujjatlari Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi va uning hududiy bo'linmalarida besh yil saqlanadi. Hujjatlardan keyingi tahlil va tibbiy yordam sifatini baholash o'rganishlari uchun foydalanish mumkin.

9-bob. Qayta o'rganish o'tkazish

37. Davolash-profilaktika muassasalari tomonidan ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini qayta o'rganishni Jamg'arma tomonidan amalga oshiriladi.

38. Qayta o'rganishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Jamg'armasining hududiy bo'linmalari tomonidan o'tkazilgan birlamchi o'rganishning sifati va to'g'riligini o'rganish;
- tibbiy ekspertlarning salohiyatini oshirish yo'nalishlarini aniqlash;
- tibbiy yordam sifatini baholash jarayonini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlarni aniqlash;
- birlamchi o'rganish natijalari asosida kuchli va zaif tomonlarni aniqlash hamda metodologik tahlil qilish.

39. Qayta o'rganish birlamchi o'rganish o'tkazilgan muassasalarda, har bir hududda yiliga bir marta tanlov asosida bitta muassasada amalga oshiriladi.

40. Qayta o'rganish Jamg'arma rahbari buyrug'i asosida o'tkaziladi.

41. Qayta o'rganish birlamchi o'rganish bilan bir xil metodologiyaga muvofiq, standart protseduralardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Birlamchi o'rganishda o'rganilgan davr qayta o'rganiladi.

42. Birlamchi tibbiy yordam sifatini baholash metodologiyasiga muvofiqligini o'rganish, tahlilning to'liqligi va xulosalarning asoslilikini baholash, Jamg'arma hududiy bo'linmalari mutaxassislarining tayyorgarligi va professionalligi darajasi aniqlanadi, tibbiy yordam sifatini baholashni ishlab chiqish va optimallashtirish yo'nalishlari aniqlanadi.

10-bob. Yakuniy xulosadan so'ng olib boriladigan tadbirlar

43. Tibbiy yordam sifatini o'rganishdan so'ng chegirmalar uchun asoslar:

- agar yakuniy xulosada bemor shifoxonaga yotqizilishi asossiz deb topilgan va/yoki bemor aslida shifoxonada davolanmagan, ammo hujjat rasmiylashtirilgan holatlar aniqlansa;

- tasdiqlangan tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollarda ko'rsatilmagan va kafolatlangan hajmga kiritilmagan tibbiy yordamlar uchun xarajatlar chegirib qolinadi.

44. Tibbiy yordam sifatini o'rganish natijasiga ko'ra, tibbiy yordam sifati 50% dan kam bo'lgan holatlarda:

- Jamg'arma tibbiy yordam sifatini baholash natijalari va aniqlangan qonunbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni hududiy sog'liqni saqlash boshqarmasiga zarur choralarni ko'rish va tibbiy muassasa bilan ishlashni muvofiqlashtirish uchun yuboradi;

- tibbiyot muassasasi 10 ish kuni ichida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan, mas'ul shaxslar va muddatlarni ko'rsatgan holda tuzatish ishlari rejasini ishlab chiqishi va tasdiqlashi shart;

- reja nusxasi tasdiqlash va nazorat qilish uchun Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasiga, va hududiy sog'liqni saqlash boshqarmasiga yuboriladi.

45. Jamg'arma rahbariyati tibbiy yordam sifatini baholash natijalari va aniqlangan qonunbuzarliklar to'g'risidagi ma'lumotlar asosida o'rnatilgan tartibda moliyaviy qarorini tasdiqlashi mumkin.

-xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan belgilangan tartibda intizomiy chora ko'rish bo'yicha;

-eng ko'p olinishi mumkin bo'lgan yakuniy ballarning 90 foizidan 100 foizigacha to'plagan davolash-profilaktika muassasalari xodimlarini o'rnatilgan tartibda qo'shimcha moddiy rag'batlantirish bo'yicha taklif kiritish.

11-bob. Yakunlovchi qoidalar

46. Ushbu Nizom talablarini bajarmaslik yoki bosh tortish O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lishiga sabab bo'ladi.

*Davolash-profilaktika muassasalarida
tibbiy yordam sifatini nazorat qilish va klinik
jihatdan asoslanganligini tekshirish-tartibi
hamda tibbiyot muassasalari faoliyatini
baholovchi indikatorlarni tasdiqlash
to'g'risidagi nizomiga 1-ilova*

**Statsionar tibbiy yordami ko'rsatuvchi muassasalarida tibbiy yordam sifatini
nazorat qilish va klinik jihatdan asoslanganligini tekshirishni
TARTIBI**

1. Mazkur tartib Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi bilan tibbiy xizmatlar xaridida ishtirok etuvchi statsionar tibbiy yordam ko'rsatuvchi muassasalarda tasdiqlangan tashxislash va davolash standartlari hamda milliy klinik protokollarga muvofiqligini ta'minlaydigan va bemorlarga sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatini beradigan tibbiy yordam sifatini nazorat qilish va klinik jihatdan asoslanganligini tekshirishni tartibini belgilaydi.

2. Ushbu tartib Jamg'arma bilan shartnomaga ega quyidagi darajadagi statsionar tibbiy yordam ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalarga tegishli:

- tuman /shahar darajasi – tibbiyot birlashmalari tarkibidagi statsionar muassasalar;
- hududiy daraja – Qoraqalpog'iston Respublikasida respublika darajasidagi, Toshkent shahar va viloyatlarda viloyat(shahar) darajasidagi statsionar tibbiyot muassasalari.

**Statsionar muassasalarda tibbiy yordam sifatini baholash uchun kasallik
tarixi namunalarini tanlash mezonlari**

3. Barcha turdagi statsionar tibbiy yordam ko'rsatuvchi muassasalarda, tibbiy yordamni yuqori darajada nazorat qilish va tahlil qilishni ta'minlash uchun xavf guruhlarini tanlashning quyidagi universal mezonlari belgilanadi.

Barcha statsionar muassasalarda qo'llaniladigan universal mezonlar:

- uzoq muddat (standart va protokol asosida shifoxonada qolish muddatlari asosida) davolangan bemorlar;
- o'ta qisqa muddat (24 soatdan kam muddat) davolangan bemorlar;
- takroriy kasalxonaga yotqizilgan bemorlar (oxirgi 3 oy ichida);
- boshqa shifoxonalardan ko'chirilgan (shu jumladan boshqa shifoxonalarga ko'chirilgan) bemorlar;
- yo'llanmasiz rejali davolanishga yotqizilgan bemorlar;
- tanlov asosida davolanib chiqqan bemorlarning kasallik tarixlari (o'rganish davridagi bemorlar soni 100 nafardan dan kam bo'lsa to'liq,

100 nafardan ortiq bo'lsa umumiy davolangan bemorlarning 100 tadan – 200 tagacha tarixlarini tanlab olish orqali

- o'lim holatlari.

Muassasada tashxislash va davolash jarayonlarining tasdiqlangan standartlari hamda milliy klinik protokollarga mosligini o'rganish va baholash indikatorlari

4. Bemorlarga ko'rsatilayotgan tashxislash va davolash xizmatining tasdiqlangan standartlari hamda milliy klinik protokollarga mosligi va o'z vaqtida o'tkazilganligini o'rganish quyidagi baholash indikatorlariga muvofiq amalga oshiriladi (0 dan 3 ballgacha):

1-jadval

T/r	Bemorning ismi-sharifi	Davolangan kun	Klinik tashxis	1.Davolanib chiqqan bemorlarga statistik kartalarning elektron tizimga kiritilishi (066 va 066/1 h/sh ning sifatli to'ldirilishi va berilgan hisobotlarning haqqoniyligi)	2.Tashxislash va davolashning milliy klinik protokol va standartlarga mosligi.	3.Tibbiy hujjatlarning (kasallik tarixi, laborator va diagnostik tekshiruvlarning natijalari va boshkalar) yuritilishi to'laqlonligi (SSV amaldagi buyrug'i asosida)
1						
2						
3						

1- jadval davomi

T/r	4.DPM tomonidan xarid qilingan tasdiqlangan formulyar asosida dori vositalari bilan ta'minlanishi	5.Buyurilgan parhez stoli kasallik nazologiyasiga mosligi.	6.Kasallik tarixlaridan ko'chirmalarning SSV amaldagi buyruqlariga mosligi	7. Kasalxonada infeksiyon nazorat tadbirlariga rioya qilish (SanQvaMga muvofiqligi)	Ballar yig'indisi	Izohlar
1						
2						
3						

5. Muassasada tashxislash va davolash sifatini yakuniy baholash:

2-jadval

T/r	Bemorning ismi-sharifi	Barcha indikatorlar bo'yicha ballar yig'indisi (maks. 21)	Foizdagi ifodasi (maks. 100%)	Tavsiyalar
1				
2				
3				
Jami				

6. Baholash indikatorlaridan foydalanish uchun yo'riqnoma:

7 ta indikatoridan har biri 0 dan 3 ballgacha bo'lgan shkalada baholanadi:

- 3 ball – ko'rsatilgan indikatorlarga to'liq rioya qilish;
- 2 ball – ko'rsatilgan indikatorlarga qisman moslik (minimal og'ishuv bilan);
- 1 ball – ko'rsatilgan indikatorlar sifatiga salbiy ta'sir qiluvchi jiddiy kamchiliklar bo'lganda;
- 0 ball – ko'rsatilgan indikatorlarga o'ta jiddiy kamchilik yoki mutlaqo mos kelmaslik holatlari.

Har bir bemor uchun barcha 7 ta indikator bo'yicha ballar jamlanadi va bunda ballarning maksimal yig'indisi 21 ga teng bo'lishi mumkin. Yakuniy jamlanma "Barcha mezonlar bo'yicha ballar yig'indisi" ustuniga yoziladi.

Ballar yig'indisini foizda ifodalash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

Ballarni foizda ifodalash = $(\text{ballar yig'indisi}/21) \times 100\%$

Misol uchun: Ballar yig'indisi 20 ga teng bo'lsa, 20 sonini 21 soniga bo'lib, 100 ga ko'paytiriladi va ko'rsatkich 95 foizni tashkil qiladi.

7. Natijalarni talqin qilish (interpretatsiya):

- 90–100% – diagnostika va davolash sifati yuqori darajada;
- 70–89% – diagnostika va davolash sifati qoniqarli, ammo yaxshilash talab etiladi;
- 50–69% – diagnostika va davolash sifati qoniqarsiz, jiddiy yaxshilash talab etiladi;
- 49% dan past – diagnostika va davolash sifati past va tubdan yaxshilash talab etiladi.

8.DPMga bemorlarni yotqizishning asosliligini baholash indikatorlari

3-jadval

T/r	Shifokorning ismi-sharifi	Bemorning ismi-sharifi	Statsionarga kelgandagi dastlabki (klinik) tashxis.	Statsionarga yotqizish asosliliigi (ha yoki yo'q)	Izoh
1					
2					
3					

Izoh: bemorlar sonidan asoslangan va asoslanmagan raqamlar soniga nisbatan foiz aniqlanadi. Masalan 20 nafar bemor ko'rilganda, shundan 15 nafari asoslangan va 5 nafari asoslanmagan natija bo'lsa, asoslangan 75% ($15 \times 100 / 20$) tashkil qiladi.

9. Natijalarni talqin qilish (interpretatsiya):

- 90-100% – davolash sifati yuqori darajada - tashxislash va davolash sifati a'lo;
- 70-89% – tashxislash va davolash sifati qoniqarli, ammo yaxshilash talab etiladi. sifatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar beriladi;
- 50-69% – tashxislash va davolash sifati past, jiddiy yaxshilash talab etiladi;
- 49% dan past – tashxislash va davolash sifati o'ta past, jarayonlarni tubdan yaxshilash talab etiladi.

10. Muassasada infeksiyon nazorat tadbirlarini baholash indikatorlari

4-jadval

T/r	Indikatorlar	Ballar (0-3)	Izohlar
1	Bemor oqimini to'g'ri yunaltirilganligi		
2	Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish (o'rganilayotgan davr mobaynida shaxsiy ximoya vositalari bilan taminlanish va foydalanish xolati)		
3	Shamollatish va havo almashinuvi uchun binoning mosligi		
4	Dezinfeksiya o'tkazish va sanitarizatsiya xolati (o'tgan davr mobaynida dezinfeksion moddalarning mavjudligi)		
5	Xodimlarning yqumli kasalliklarni oldini olish bo'yicha o'qitilganlik holati		

6	Infeksion nazorati choralariga rioya etilishini monitoring va nazorat qilish (DSENM tomonidan infeksiya nazorat o'tkazilishi)		
Jami		Ballar	%

Har bir indikator uchun ma'lum bir baholash bali belgilanadi:

0 ball - faoliyat tugallanmagan yoki qoniqarsiz bajarilgan.

1 ball - faoliyat qisman yoki qoidabuzarliklar bilan yakunlandi.

2 ball - faoliyat asosan yakunlandi, lekin kichik kamchiliklar bilan.

3 ball - tadbir to'liq, qoidabuzarliklarsiz yakunlandi.

Umumiy ballar foizlarga aylantiriladi.

Foiz = (ballar yig'indisi/18) × 100%

*Davolash-profilaktika muassasalarida
tibbiy yordam sifatini nazorat qilish va klinik
jihatdan asoslanganligini tekshirish-tartibi
hamda tibbiyot muassasalari faoliyatini
baholovchi indikatorlarni tasdiqlash
to'g'risidagi nizomiga 2-ilova*

**Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida ko'rsatilayotgan tibbiy
yordam sifatini nazorat qilish va klinik jihatdan asoslanganligini tekshirishni
TARTIBI**

1. Mazkur tartib birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari (keyingi o'rinlarda – BTSYOM) da ko'rsatiladigan tibbiy yordamning tasdiqlangan standart va protokollarga muvofiqligi hamda sifatini nazorat qilish tizimini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Asosiy maqsad, sog'liqni saqlash tizimining ustuvor yo'nalishlari, masalan, ona va bola salomatligi, yuqumli va yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish, davolash va BTSYOM faoliyatining boshqa sohalarida aholi salomatligini yaxshilash uchun xizmat ko'rsatishning yuqori darajadagi samarasiga erishishni ta'minlashdir.

**BTSYOM faoliyati sifatini nazorat qilishning ustuvor
yo'nalishlari va asosiy ko'rsatkichlari**

3. Onalar salomatligini muhofaza qilish:

- fiziologik homiladorlik bilan bog'liq holatlarni o'rganish;

- homilador ayollar uchun tibbiy ko'riklar, laboratoriya, instrumental tekshiruvlar va boshqa profilaktika choralari kabi majburiy chora-tadbirlarning bajarilishini baholash amalga oshiriladi;

- hisobot davrida homiladorlikni tugatgan ayollarning ambulator kartalarining kamida 10 foizi o'rganish uchun tanlanadi. Tanlov hisobot davrida tug'ilganlarni ro'yxati asosida tasodifiy tanlab olish yo'li bilan amalga oshiriladi; (masalan ro'yxat tartibi bo'yicha 1, 11, 21 va xakazo);

- jadvalga mutaxassis tomonidan ushbu tadbir talablari to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilgan homilador ayollar ma'lumotlariga asoslanib to'ldiriladi.

T/r	Tibbiy xizmatlar sifatini o'rganish uchun kartalar umumiy soni	Tadbir to'liq va o'z vaqtida yakunlangan ayollar soni	Baholash (%)
	Tadbir		
1	Obyektiv ko'riklar (7-marta)		
2	Sut bezlarini palpatsiya qilish		
3	Umumiy qon tahlili (2-marta)		

4	Qondagi glyukoza miqdorini tekshirish (2-marta)		
5	Umumiy siydik tahlili (7-marta)		
6	Vasserman reaksiyasi (1-marta)		
7	Gepatit B va C testi (1-marta)		
8	Qon guruhi va rezus-omilini aniqlash		
9	Homiladorlikni 12 xaftagacha xisobga olinganligi (ha-1, yo'q-0)		
10	Xomiladorlik holatni tekshirish (24 haftadan keyin)		
11	Ultratovush tekshiruvi (12 va 30 hafta)		
Yakuniy baho			

Jadvalga 5 nafar homiladordan faqat 4 nafari barcha 7 ta obyektiv ko'riklardan to'liq o'tkazilgan bo'lsa, 5 tadan 4 tasi (yoki shunchaki "4") qayd etiladi.

Ball, % – formula yordamida hisoblab chiqilgan:

Ball, % = bajarilgan tadbirlar soni/ekspert xaritalarining umumiy soni 100%.

Misol uchun, agar talab qilinadigan 5 ta tadbirdan 4 tasi bajarilgan bo'lsa, yakuniy ball 80% bo'ladi.

Yakuniy ball – yakuniy foiz barcha voqealar uchun o'rtacha qiymat sifatida hisoblanadi.

4. Murakkab homiladorlik holatlarini o'rganish:

- BTTYOMlarida asoratlari bo'lgan homilador ayollarga tibbiy yordam sifatini o'rganish uchun hisobot davrida homiladorlikni tugatgan 10 foiz bemorning belgilangan namunasi tanlanadi;

- ona va homilaning holatini kuzatish bo'yicha klinik tavsiyalarga muvofiq barcha zarur laboratoriya va instrumental tekshiruvlar o'tkazilganligini aniqlash;

- belgilangan aralashuvlar va dori vositalarning standartlarga mos kelishini va asoratlarni boshqarish bo'yicha tavsiyalarga amal qilinganligini o'rganish.

T/r	Tibbiy xizmatlar sifatini o'rganish uchun kartalar umumiy soni _____	Baxolash indikatori to'liq bajarilgan ayollar soni	Baholash (%)
	Baholash indikatorlari		
1	Asoratlarni o'z vaqtida aniqlash		
2	Tashxislashni standartlarga muvofiqligi		
3	Davolashni buyurish va unga rioya qilish		
4	Xomilaning holatini kuzatish		
5	Ko'rsatmalarga muvofiq kasalxonaga yotqizish to'g'risida qaror qabul qilish		

6	Ko'rsatmalar bo'yicha ixtisoslashgan mutaxassislarning maslahatlari		
7	Tug'ruqdan keyingi shifokorning kuzatuv		
Yakuniy baholash			

5. Jadvalni to'ldirish indikatorni to'liq bajaragan ayollar soni – jadvalni ikkinchi grafasiga kiritiladi.

Ball, % – formulaga muvofiq indikatorni bajarish foizi sifatida hisoblanadi:

Ball, % = indikatorni bajaragan ayollar soni / ushbu mezonga ega bo'lgan ayollarning umumiy soni 100% ni tashkil qiladi.

Misol uchun, agar 8 ayoldan 6 tasi o'z vaqtida kasalxonaga yotqizilgan bo'lsa, hisob: $6/8 \times 100\% = 75\%$.

Yakuniy ball – yakuniy foiz barcha voqealar uchun o'rtacha qiymat sifatida hisoblanadi.

BTSYOMlarida bolalarga tibbiy yordam sifatini baholash indikatorlari

6. O'rganish o'tkazish uchun har bir yosh guruhidagi bolalarning 15 ta ambulator kartasi tanlanadi, jami 45 ta ambulator karta o'rganiladi:

- 0-1 yoshgacha bo'lgan bolalar, profilaktik ko'riklar, emlashlar va rivojlanishni baholashga e'tibor qaratiladi;

